

# Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ShARTNOMA № 7

2022 yil « 18 » avgust

Urganch shaxar 96 son MI nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi

(muassasa nomi)

Mamatova N \_\_\_\_\_ (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataladi)

(F.I.Sh.)

bir tomondan MARJONA MAFTUNA SHIRIN TAOMLARI UHI nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida

(tashkilot nomi)

faoliyat yurituvchi direktor I. Masharipov (keyingi o'rinlarda Autsorsers deb ataladi),

(F.I.Sh.)

ikkinchi tomondan keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

## I. Shartnoma predmet

1.1 Autsorsers Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning 1 2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2 Autsorsers mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini

besh mahal issiq ovqat bilan ta'minlash 628.897.500 so'm \_\_\_\_\_  
(autsorserga o'tkazilgan xizmat nomi)

hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasiga oladi.

1.3 Xizmat ko'rsatish muddati: 2022 yil « 18 » avgust - 2022 yil « 31 » dekabr gacha.

1.4 Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorsers tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolanib Buyurtmachi Autsorsersing mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

## II Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1 Autsorsers quyidagi huquqlarga ega:

2.1.1 Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

2.1.2 Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

2.1.3 Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

2.1.4 Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;

2.1.5 Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

2.1.6 Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

2.1.7 Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.2 Autsorsers quyidagilarga majbur:

2.2.1 Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;

2.2.2 Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga qat'iy rioya etishi;

2.2.3 Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifalli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

2.2.4 Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

2.2.5 Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;

2.2.6 Xizmatlarni sifalli, mazkur Shartnomaning 1 3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;

2.2.7 Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorsers mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;

2.2.8 Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi

aniqlanganda, Autsorsers zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;

2.2.9 Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;

2.2.10 Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;

2.2.11 Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;

2.2.12 Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblari, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlashi;

2.2.13 Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;

2.2.14 Mazkur shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;

2.2.15 Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);

2.2.16 Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.



- 2.3.1 Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;
- 2.3.2 Outsorsering faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;
- 2.3.3 Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Outsorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;
- 2.3.4 Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.
- 2.4 Buyurtmachi quyidagilarga majbur:
- 2.4.1 Bajarilgan ishning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;
- 2.4.2 Outsorserga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;
- 2.4.3 Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

### III. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

3.1 Mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi:  
(summa son va so'z bilan) 628.897.500 so'm (olti yuz yigirma sakkiz million sakkiz yuz to'qson etti ming besh yuz ) so'm  
Oldindan to'lov 30 %

- 3.2 Outsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.
- 3.3 Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Outsorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Outsorser va Buyurtmachi tomonidan imzolangan bajarilgan ishning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiriladi. -
- 3.4 Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.
- 3.5 Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlarini tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

### IV. Tomonlarning korruptsiyaga qarshi kurashish buyicha majburiyatlari

- 4.1 Shartnoma buyicha uz majburiyatlarini bajarishda tamonlar korruptsiyaga qarshi kurashish buyicha koidalariga shu jumladan amaldagi konunlarga rioya etilishini ta'minlaydi. yana tamonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora olishida vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy nafolishdan tiyilish lozim, Tamonlar ushbu xarakterlarining oldini olish buyicha chora-tadbirlar kabul kilinishini kafolatlaydi.
- 4.2 Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.
- 4.3 Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgar bo'ladi.
- 4.4 Buyurtmachi har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijaraga berilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (outsorsering moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.
- 4.5 Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

### V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

- 5.1 Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.
- 5.2 Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

### VI. Fors-major holatlar

- 6.1 Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblansa va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga suriladi.

### VII. Yakunlovchi qoidalar

- 7.1 Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.
- 7.2 Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi roziligidan biror bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.
- 7.3 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

### VIII. TOMONLARNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

- 8.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi konunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tamonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.
- 8.2 Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tamonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.
- 8.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsiya xavf-xatar bartaraf etilmasa, tamonlar amalga oshirgan choralari korruptsiya holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

3-qiyimat

**Shartnomaning amal qilish muddati**

Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan kuchga kiradi va 31.12.2022 yilgacha yoki muddatidan oldin bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

**Tomonlarning manzili va bank rekvizit**

**«Autsorser»**

**«Marjona Maftuna shirin taomlar» MCHJ**

**Manzili Urganch sh Samarqand №91**

**Telefon**

**XR 20208000305060566001**

**Bank Turon bank**

**MFO 00551**

**INN 306262406**

**OKED 46390**

**«Urganch shaxar 96- son» MI**

**Tel:**

**XR 100021860334017092400075001**

**STIR: 201943062**

**G'azna x/r23402000300100001010**

**Bank: Markaziy bank Toshkent shaxar**

**MFO: 00014**

**INN: 201122919**

**Raxbar:**



**MI rahbari**





SHARTNOMANING PROGNOZ SUMMASI Outsorsing shartlari usosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha \_\_\_\_\_, 2022 yil №1 sonli shartnomaga ILOVA

T/r	Oylar	xizmat soni	buyurtmachi narxi	taklif narxi za ed.	15% НДС	сумма	итог сумма за каждый месяц	Jami QQS bilan
1.	Yanvar							
2.	Fevral							
3.	Mart							
4.	Aprel							
5.	May							
6.	Iyun							
7.	Iyul							
8.	Avgust							
9.	Sentyabr	5775	27500	23913	3587	27500	158812500	158812500
10.	Oktyabr	5775	27500	23913	3587	27500	158812500	158812500
11.	Novabr	6006	27500	23913	3587	27500	165165000	165165000
12.	Dekabr	5313	27500	23913	3587	27500	146107500	146107500
	Shartnomanin g Jami summasi						628 897 500,00	628897500,00

«Marjona Maftuna shirin taomlar» MCHK  
 Manzili Urganch sh  
 Telefon  
 XR 20208000305060566001  
 Bank Turon bank  
 MFO 00551  
 INN 306262406  
 OKEP 45390



Ataeva I

«Urganch shaxar 96- son» MI

Tel:  
 XR 100021860334017092400075001  
 STIR: 201943062  
 B-4288 X/23402000300100001010  
 Banki Ma'kazi bank Toshkent shaxar  
 MFO-00044 DAVLAT  
 TIN-201122919



Haqbar

Mamatova N